

Termiz shahrida professional boks bo'yicha "Viloyat hokimi kubogi" musobaqasi o'tkazildi



Turnirni viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ochib berdi va musobaqada ishtirok etayotgan barcha sportchilarga omad tiladi. Shuningdek, turnirda O'zbekiston professional boks federatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari G'ofur Rahimov ishtirok etdi. Mazkur bellashuvlarda Surxon o'g'lonlari va yurtimizdagi eng kuchli bokschilari ringga ko'tarilishdi.

Turli vazn toifalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan bokschilarga pul mukofotlari va sovg'alar tantanali topshirildi.